



XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 13 - aprel

VI-58-83-7-92-K/22

Oqdaryo tumani hokimligi

Tuman mahalliy budgetining 2022-yil 1-yanvar holatiga saqlangan erkin qoldiq hisobidan ajratiladigan mablag'lar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida"gi Qonuni va Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi "Oqdaryo tumanining 2022-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to'g'risida"gi (VI-51-136-7-92-K/21-son) qaroriga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, ellik sakkizinch sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman budgetining 2022-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan ishlar va ajratiladigan mablag' miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (Sh.Shakarov)ga, ajratilgan mablag'lardan hisob-kitoblarga asosan maqsadli foydalanish, tuman hokimligi Moliya bo'limi (U.Maxmanazarov)ga ajratilgan mablag'larni maqsadli ishlatalishini nazorat qilish yuklatilsin.
3. Tuman hokimligi Moliya bo'limi (U.Maxmanazarov)ga tuman mahalliy budgetiga tegishli o'zgartirish kiritish, tuman G'aznachilik bo'linmasi (H.Ablaqulov)ga belgilangan tartibda to'lovlarini amalga oshirish vazifasi topshirilsin.
4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy

komissiyasi (M.Ergasheva) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Ashurov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



Qudratov Sh.

Xalq deputatlari Oqdaryo tuman Kengashining
2022 yil 13 apreldagi
VI-58-83-7-92-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag'larini hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar va ajratiladigan mablag'lar miqdori

| T/R | Mablag' ajratiladigan tashkilot nomi | Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi | Ajratiladigan mablag' miqdori (ming so'mda) | Asos |
|-----|--------------------------------------|--|---|---|
| 1 | Tuman obodonlashtirish boshqarmasiga | <p>Tuman hududidagi mahallalarining ichki tuproq yo'llariga tosh-shag'al yotqizish maqsadida yoqilg'i moylash mahsulotlari sotib olish xarajatlariga</p> <p>2022-yil Obod qishloq davlat dasturiga asosan qurilish va ta'mirlash ishlari amalga oshirilayotgan qishloqlarga piyodalar yo'lagini qurish ishlari sment sotib olish xarajatlariga</p> | <p>128360,0</p> <p>69133,0</p> | <p>Tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i Sh.Isaqulovning 2022-yil 25-martdagi 115-sonli xati hamda tuman Moliya bo'limi boshlig'i U.Maxmanazarovning 2022-yil 29-martdagi 2/06-38/155-sonli xulosa xati</p> |
| 2 | Tuman hokimligiga | <p>Oqdaryo tuman hokimining 2018-yil 14-iyundagi "Turar va noturar bino inshootlarini buzishga ruxsat berish hamda bo'shagan yer maydonini Oqdaryo tuman hokimligi zaxirasiga olish to'g'risida"gi 1298-Q-sonli qaroriga asosan Nurmuminov Nurillo, Xaydarov Ergash va Iskandarov Fazliddinlarga tegishli bo'lgan 2 ta noturar va 1 ta turar joy binolarini buzish uchun kompensatsiya to'lovlarini to'lash xarajatlariga</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-noyabrdagi "Davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan fuqarolarga va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash tartibi to'g'risida"gi Nizomiga asosan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining</p> | <p>469634,0</p> <p>10152,0</p> | <p>O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.S.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining Samarqand viloyat bo'limining 2022-yil 7-apreldagi 29/21-08 (723) 16.1M/1534-sonli va 29/21-08 (723) 16.3M/1535-sonli, 29/21-08 (724) 16.1M/1508-sonli va 29/21-08 (724) 16.3M/1509-sonli hamda 29/21-08 (725) 16.1M/1536-sonli va 29/21-08 (725) 16.3M/1537-sonli mutaxassis fikri</p> <p>Tuman hokimligi bosh yuriskonsultining bildirish xati hamda tuman Moliya bo'limi boshlig'i U.Maxmanazarovning 2022-yil 11-apreldagi 2/06-38/205-sonli xulosa xati</p> |

| | | | |
|-------|--|----------|--|
| | Madaniyat Institutiga kirgan talabalar kontrakt to‘lovini to‘lash xarajatlariga | 20924,0 | Tuman hokimining o‘rnbosari S.Luqmonovning bildirish xati va tuman Moliya bo‘limi boshlig‘i U.Maxmanazarovning 2022-yil 13- apreldagi 2/06-38/212-sonli xulosa xati |
| Jami: | x | 653145,9 | |